

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAVRUZ-ZODA SHOHRO‘ BAXTIYOR

YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
KLASTER MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.17 –Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Navruz-zoda Shohro‘ Baxtiyor

Yoshlar turizmini rivojlantirishning klaster mexanizmini takomillashtirish.....3

Навруз-зода Шохру Бахтиёр

Совершенствование кластерного механизма развития молодежного туризма.....29

Navruz-zoda Shohru Bakhtiyor

Improving the cluster mechanism of youth tourism development.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....62

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAVRUZ-ZODA SHOHRO‘ BAXTIYOR

YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
KLASTER MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.17 –Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PHD/Iqt2378 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmatullayeva Firuza Mubinovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Alimova Mashhura Toirxonovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xalliyeva Nargiza Roziqovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/05.05.2023.I.72.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "27" MART soat 17:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: (998 65) 221-29-14, (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (417 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" MART kuni tarqatildi.

(2024-yil "11" MART dagi 2 -raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yaxmutov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

A.O. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yoshlar sonini yuqori surʼatlar bilan oshib borayotgan sharoitida yoshlar turizmini rivojlantirishda klaster yondashuvini qoʻllash yetakchi oʻrinlardan birini egallamoqda.. Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) hisob-kitoblariga koʻra 2023-yilda global turizm hajmi 2019-yildagi eng yuqori koʻrsatkichlardan atigi 5 foizga past boʻladi va 9,5 trillion dollarga yetadi¹. Globallashuv jarayonlari insonlarning dunyo boʻylab erkin harakatlanishiga keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) maʼlumotlariga muvofiq, 2022- yilda dunyoda 900 milliondan ortiq xalqaro turistik sayohatlari qayd etilgan boʻlib, ular orasida yoshlar ulushi 33 foizni tashkil etdi². Shu bois, yoshlarni sayyohatga boʻlgan ehtiyojini sifatli qondirish, yoshlarning tashrif yoʻnalishlari narxlarini pasaytirish va yoshlar turizmini kelgusida klaster usulida tashkillashtirish sohaning muhim masalalaridan biri sanalmoqda.

Jahonda yoshlar turizmini ustuvor yoʻnalishlari sifatida rivojlantirish xususiyatlari va zamonaviy tendentsiyalarini aniqlash, tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlarini oʻrganish, sohani innovatsion rivojlanishini taʼminlash va uning investitsion jozibadorligini oshirish, yoshlar segmentining turistik xizmatlar bozorida isteʼmolchilik saʼy-harakatlariga yoʻnaltirilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar qatorida yoshlar turistik klasterini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini aniqlash, yoshlar tashrif buyuradigan joylarning klasterbopligini baholash, yoshlar turistik klasterining raqobat ustunligini taʼminlovchi vosita sifatida qoʻshilgan qiymat zanjirini yaratish mexanizmini takomillashtirish kabi yoʻnalishlardagi tadqiqotlar dolzarb muammolar boʻlib qolmoqda.

Respublikamizda yoshlar turizmini rivojlantirish uchun yetarli salohiyat mavjud boʻlib, uni rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarda «Oʻzbekiston boʻylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazilishi³ boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, yoshlar tashrif joylarning jozibadorligini oshirish, yoshlar turistik klasterlarni yaratish, sohaga strategik sheriklarni jalb qilish boʻyicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining “Turizm toʻgʻrisida”gi Qonuni (2019), Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son “Oʻzbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 5-yanvarda “Oʻzbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi PF-60

¹ <https://www.wttc.org>

² <https://www.unwto.org/news/tourism-on-track-for-full-recovery-as-new-data-shows-strong-start-to-2023>

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish kontsepsiyasi”, 2020-yil 28-maydagi PF-6002-sonli “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda turizm sohasiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarda turizm klasterlar amaliyoti, yoshlar turizmi sohasi bilan bog‘liq nazariy-uslubiy masalalar ko‘pgina olim va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, J.Krippendorf, E.Kohen, L.E.Hudman, S.Horak, S.Veber, R.Hayg, D.Alise, N.Karr, A.Sullivan, M.Porter, N.Leyper, D.Pirs, S.Kuper, S.Kaspar, T.Bieger, J.Larsen, J.Urri, K.Axhausen, D.Buxalis, M.Manente, V.Mingetti⁴ va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Yoshlar turistik klasterlarni shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan G.V. Palatkina, M.B. Birjakov, A.Y. Kononov, A.Y. Aleksandrova, T.S. Vertinskaya, V.A. Klitsunova, Y.I. Seraya, M.A. Morozov, S.S. Nikolayev, T.A. Sebekina, A.Y. Ryabuxa, A.I. Zorin, N.A. Goncharova, E.N. Pavlova, M.B. Birjakov, A.A.

⁴Krippendorf, Jost. 1971. *Marketing et Tourisme*. Bern: Herbert Lang; Cohen, Erik. 1973. “Nomads from Affluence: Notes on the Phenomenon of Drifter-Tourism” *International Journal of Comparative Sociology* 14 (1-2): 89-103; Hudman, L.E. 2015. “Student International Travel”. *Tourism Recreation Research* 2 (15): 41 – 45; Horak, Sinisa and Sanda Weber. 2000. “Youth Tourism in Europe: Problems and Prospects”. *Tourism Recreation Research* 25 (3): 37-44; Alice, D. 2004. Youth tourism in Canada – A situational analysis of an overlooked Market. Canada: Youth Tourism Consortium of Canada; Carr, N. 2000. An exploratory study of gendered differences in young tourists perception of danger within London. *Tourism Management* 22:565-570; Sullivan, A. 2004. Defining trends in youth travel in Australia. In *The World Youth and Student Travel Conference 2004*. Madrid: World Youth and Student Travel Conference; Althof W. *Incoming-Tourismus*. München; Wien: Oldenbourg Verlag, 2001. 356 p.; Larsen J., Urry J., Axhausen K. Networks and tourism: Mobile social life // *Annals of Tourism Research*. 2007. 34(1). p. 244–262.; Buhalis D. Marketing the competitive destination of the future // *Tourism Management*. 2000. № 21 (1). P. 97–116.; Manente M., Minghetti V. Destination management organizations and actors // *Tourism business frontiers: Consumers, products and industry*. Oxford: 2006. p. 228–237.; Boes, K., Buhalis, D., Inversini, A. (2015). Conceptualising smart tourism destination dimensions. In I. Tussyadiah and A. Inversini (Eds.), *Information and communication technologies in tourism 2015* (pp. 391-403). Heidelberg, Germany: Springer.; Cohen B. (2012). Smart cities hub. - URL: <http://smartcitieshub.com/2012/11/11/smart-cities-ranking-methodology>.

Ryabtsev, A.K. Gergishan, A.I. Tarasyonok, V.A. Molchanova, Y.N. Lapigin, D.V. Tulinova, L.A. Ulyanchenko, N.V. Rubtsovalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Ushbu muammolarni o'rganishga O'zbekistonlik olimlardan K.X. Abduraxmonov, M.Q. Pardayev, I.S. Tuxliyev, N.T. Tuxliyev, M.M. Muxammedov, B.N. Navro'z-zoda, T.D. Doschanov, D.X. Aslanova, B.X. Turayev, A.F. Saidov, O.X. Xamidov, N.S. Ibragimov, N.E. Ibadullayev, A.A.Eshtayev, B.Sh. Safarov, Z.D. Adilova, M.T. Alimova, M.T. Aliyeva, A.N. Norchayev⁵ va boshqalarning ilmiy izlanish va asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari hamda klasterlashtirish xususiyatlariga oid muhim masalalar tadqiq etilgan. Ammo respublikamizga tashrif buyuradigan yosh sayyohlarning oqimini ko'paytirish, yoshlar turizmini mintaqa darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyasini ilmiy jihatdan asoslash, hududlarda yoshlar turistik klasterlarni barpo etishni ta'minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan. Bularning barchasi ushbu tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Buxoro davlat universitetining №HTR-03 "Hududiy turizmni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda "OT-F1-04 "Raqobatbardosh turistik hudud va klasterlarni shakllantirish asosida O'zbekistonda turizmni davlat miqyosida barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental tadqiqotlar ilmiy-texnika loyiha doirasida bajarilgan.

⁵Абдурахмонов К. Туристическая индустрия в условиях пандемии. Туризмда инновацион-инвестиция жараёнларини ривожлантириш истикбол-лари. / 2020 йил 3 июн. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд, СамИСИ, 2020.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. -Т.: Гос.науч.изд-во «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2006. – 424 с.; Тухлиев И. ва бошқа муаллифлар. Туризмни режалаштириш. Дарслик. -Т.: "Iqtisod-Moliya" нашриёти, 2010. – 238 б.; Пардаев М., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. -Самарқанд: СамИСИ, 2006. -137 б.; Мухаммедов М. ва б. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. С.: 2007. – 299 б.; Навруз-зода Б. ва б. Туристтик ҳудуд рақобатбардошлиги. Монография. Б.: 2017. – 156 б.; Досчанов Т., Рўзметов Б. Туризмни ривожлантиришда музейлар фаолиятига рақамли технологияларни қўллаш масалалари. – Самарқанд, СамИСИ, 2021 й. 103-107 б. Асланова Д. Модели формирования туристского кластера за рубежом. «Сервис» илмий оммабоп журнали, 2013. №1; Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. -Т.:«Фан», 2009. – 154 с.; Саидов А.Ф. Организационно-экономические механизмы управления туризмом Республики Узбекистан: Дисс. док. экон. наук. -Т.: 1994. - 252 с.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: Дисс. канд. экономических наук. -С.: СамИСИ, 2006. -155 с.; Ибадуллаев Н.Э. Туристтик ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имкониятлари (Самарқанд вилояти мисолида). и.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация. -С.: 2010; Eshtaev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. – Т.: Fan, 2011.; Алиева М.Т. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссертация. –С.: 2020. -275 б.; Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. Монография.-Т.: 2016.-184 б.; Алимova М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. Монография. Т.: 2015. - 300б. Норчаев А.Н. Халқаро туризм ривожланишининг иқтисодий ўсишга таъсири (Испания мисолида): и.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация. -Т.: 2004. -136 б.

Tadqiqotning maqsadi yoshlar turizmini rivojlantirishning klaster mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiya va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“yoshlar turizmi”, “turistik destinatsiya”, “turizm klasteri” va “yoshlar turizmida klaster” tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini asoslash;

yoshlar turistik klasterini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini aniqlash, xorij tajribasini o'rganish hamda uni O'zbekistonda qo'llash mexanizmlarini shakllantirish;

yoshlar turistik destinatsiyaning klasterbop SMART modelini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash;

yoshlar tashrif joylarining sayohat klasterboplik darajasini aniqlash va muhim klasterboplik indikator (KPI) larini ishlab chiqish;

Buxoro viloyatida geografik jihatdan yaqin joylashgan turistik obyektlar va hududlarni birlashtirish negizida yoshlar turistik klasterlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini baholash va takliflar ishlab chiqish;

Buxoro yoshlar turistik klasterining raqobat ustunligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish mexanizmini takomillashtirish.

Buxoro viloyatida yoshlar turizmini 2024–2028-yillarda rivojlantirish prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti yoshlar turistik klasterining hududiy birligini ta'minlash vositasi sifatida turistik destinatsiyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti yoshlar turizmini rivojlantirishning klaster mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui sanaladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, omilli tahlil, ekspert baholash, ekonometrik tahlil, anketa-so'rovnoma hamda tanlanma kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshlar tashrif joylarining jozibadorligi aniqlovchisi “SMART destinatsiya+klaster” tuzilmasiga “Sayyohatgohlarning klasterbopligi” (SKB) atamasini kiritish orqali takomillashtirilgan;

yoshlar tashrif joylarini baholash yondashuvini bunday turistik ob'ektlardan foydalanishning KPI tizimi darajasiga ko'ra past ($0 \leq SKB_{past} \leq 40,0$) - “ko'ngilochar maskan”, o'rta ($40,5 \leq SKB_{o'rta} \leq 70,0$) - “diqqatga sazovor yoshlar tashrif joyi”, o'rtadan yuqori ($70,5 \leq SKB_{o'rtadan yuqori} \leq 85,0$) - “yoshlarning jozibador sayohat destinatsiyasi” va yuqori ($85,5 \leq SKB_{yuqori} \leq 100,0$) - “klasterbop sayohatgoh” kabi mezon va chegara diapazonlari asosida toifalash taklifi ishlab chiqilgan;

turizm sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirishda yoshlarga turistik xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar ulushi va ulardagi xizmatlar sifatini takomillashtirish ularning tarkibi turoperator va turagentlar (T&T) – 10 %,

transport va kommunikatsiya vositalari (T&Kv) – 35 %, joylashtirish va ko‘ngil ochish vositalari (JKv) – 30 %, ovqatlanish korxonalarini va chakana savdo do‘konlari (Och) - 15 % va boshqa qo‘shimcha turistik xizmatlar ko‘rsatadigan tashkilotlari (QXt) – 10 % ko‘rinishda bo‘lishi eng optimal yondoshuv sifatida asoslangan;

Buxoro viloyatida yoshlar turizmini rivojlanish dinamikasi asosida yosh turist sifatida tashrif buyuruvchilar sonini oshirishning 2024–2028-yillarda prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

yoshlar turizmini klaster yondashuvida tashkil etish sohasidagi tushunchalar aniqlashtirildi va turizm klasterining uchta - klaster yadrosi, klaster hamkorlari va klaster destinatsiyasi tarkibiy qismlaridan iborat bo‘lgan “destinatsion” modeli asosida yaratish tavsiya etildi;

yoshlar tashrif joylarning sayohat klasterboplik darajasini KPI tizimi bo‘yicha baholash mezonlari ishlab chiqildi;

yoshlar turizmi klasteri tashkiliy tuzilmasining uch – integratsion, hamkorlik va destinatsion bloklardan iborat mexanizmi taklif etildi;

klaster ichidagi turistik biznes yurituvchi sub‘ektlarning qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishda ishtirokini o‘rganish natijasida yoshlar turizmi klasterining qiymat ortiruvchanlik hissasi ilmiy asoslangan;

Buxoro viloyati “Yoshlar turizmi klasteri”ning “Funny&Sunny Bukhara” (Qiziqarli va quyoshli Buxoro) nomli hududiy brendi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi; ma‘lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining statistik ma‘lumotlari va davriy hisobotlaridan olinganligi; keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yoshlar turizmini klaster usulida tashkil etish to‘g‘risidagi nazariy bilimlar doirasini kengaytiradi. Tadqiqotning nazariy-ilmiy xulosalari va uslubiy tavsiyalaridan sohada klasterlashtirish asnosida yoshlar turizmini rivojlanish dasturlari, strategiya va kontsepsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularda asosan ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan respublika va Buxoro viloyatida yoshlar turistik klasterlarini shakllantirish bo‘yicha dasturiy hujjatlarni, tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, hududlardagi yoshlar turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, “Turizm asoslari”, “Turizm

iqtisodiyoti”, “Turizm va mehmonxona xizmatlari iqtisodiyoti”, “Turizm marketing” kabi fanlar bo‘yicha ishchi o‘quv dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlar turizmini rivojlantirishning klaster mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yoshlar tashrif joylarining jozibadorligi aniqlovchisi “SMART destinatsiya+klaster” tuzilmasiga “Sayyohatgohlarning klasterbopligi” (SKB) atamasini kiritish orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 23-oktabrdagi 02-12-17-1007-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm salohiyatini rivojlantiruvchi klasterlashtirish muhiti yaxshilangan va yoshlar turistik klasterlarni shakllantirish imkoniyati vujudga keldi, respublikaning turli hududlarida turistik klasterlarni shakllantirish maqsadida sayohatgohlarning klasterbopligi darajasini aniqlashda foydalanishga tavsiya qilindi;

yoshlar tashrif joylarini baholash yondashuvini bunday turistik ob‘ektlardan foydalanishning KPI tizimi darajasiga ko‘ra past ($0 \leq SKB_{past} \leq 40,0$) - “ko‘ngilochar maskan”, o‘rta ($40,5 \leq SKB_{o‘rta} \leq 70,0$) - “diqqatga sazovor yoshlar tashrif joyi”, o‘rtadan yuqori ($70,5 \leq SKB_{o‘rtadan\ yuqori} \leq 85,0$) - “yoshlarning jozibador sayohat destinatsiyasi” va yuqori ($85,5 \leq SKB_{yuqori} \leq 100,0$) - “klasterbop sayohatgoh” kabi ishlab chiqilgan mezon va chegara diapazonlari asosida toifalash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 23-oktabrdagi 02-12-17-1007-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlar turistik klaster tarkibiga kiruvchi turizm infratuzilmasi korxonalarini sonini 5-7 foizga oshirish imkoniyati yaratilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Yoshlar tashrif joylarini baholashning uslubiy asoslari” uslubiy qo‘llanmasida ushbu baholash metodikasi asoslangan hamda mazkur baholash uslubiyoti respublika hududlarida turistik klasterlarni shakllantirish darajasini aniqlashda samarali yondoshuv sifatida tavsiya qilindi;

turizm sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirishda yoshlarga turistik xizmat ko‘rsatuvchi sub‘ektlar ulushi va ulardagi xizmatlar sifatini takomillashtirish ularning tarkibi turoperator va turagentlar (T&T) – 10 %, transport va kommunikatsiya vositalari (T&Kv) – 35 %, joylashtirish va ko‘ngil ochish vositalari (JKv) – 30 %, ovqatlanish korxonalarini va chakana savdo do‘konlari (Och) - 15 % va boshqa qo‘shimcha turistik xizmatlar ko‘rsatadigan

tashkilotlari (QXt) – 10 % ko‘rinishda bo‘lishi eng optimal yondoshuv sifatida asoslangan tavsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 23-oktabrdagi 02-12-17-1007-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy tavsiyasini qo‘llash natijasida Buxoro shahrida “Somoniyalar” istirohat bog‘ining diqqatga sazovor joyi asosida “Yoshlar turizmi klasteri” shakllantirilish loyihasi yaratildi va bu turistik destinatsiyasida turistlar oqimining miqdorini samarali tadqiq qilishga erishildi. Sh.Navruz-zoda tomonidan ishlab chiqilgan “Yoshlar tashrif joylarini baholashning uslubiy asoslari” uslubiy qo‘llanmasida asoslab taklif etilgan *turistik xizmatlar ko‘rsatadigan tashkilotlarining qo‘shilgan qiymat zanjirida ishtiroki me‘yorlari* hududlarda yoshlar turistik klasterlarini yaratish va ularning tashkiliy tuzilmasini shakllantirishda optimal variant sifatida tavsiya qilindi;

Buxoro viloyatida yoshlar turizmini rivojlanish dinamikasi asosida yosh turist sifatida tashrif buyuruvchilar sonini oshirishning 2024–2028-yillarda ishlab chiqilgan prognoz parametrlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo‘mitasi tomonidan turizmini rivojlantirishning mintaqaviy dasturlari va Yo‘l xaritalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 23-oktabrdagi 02-12-17-1007-son ma‘lumotnomasi). Ushbu prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish 2028-yilga borib, yosh turistlar sonini 21,9 foizga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 11 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot muammosini o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy

yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda ularni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **“Yoshlar turizmi va uni rivojlantirishning klaster mexanizmini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda yoshlar turizmining xususiyatlari va uni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, post pandemiya sharoitida yoshlar turizmini rivojlantirishning innovatsion tashkiliy shakllari, turizm klasterlarini shakllantirishning ilg'or xorijiy tajribasi va ularni O'zbekiston sharoitida yoshlar turizmini rivojlantirishda qo'llash imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Yoshlar turizmining turli ta'riflarini rivojlanish bosqichlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, yoshlar turizmi boshqa turizm turlariga nisbatan ancha yangi bo'lib, innovatsion rivojlanish, internet, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashib borishi natijasida dunyoga kela boshlagan. Yoshlar turizmi 14-30 yosh oralig'idagi insonlar tomonidan amalga oshiriladigan, byudjetli turar joyni afzal ko'radigan, o'z sayohatlarini mustaqil tashkil etishga intiladigan, dunyoni bilishga va dam olishni tashkil etishga qaratilgan turizmning maxsus turi sifatida namoyon bo'ladi.

Yosh avlodning pandemiya sharoitidagi faol sayyohlik sa'y-harakatlarini inobatga olib, yoshlar turizmini rivojlantirishning tashkiliy shakllariga bag'ishlangan xorijiy va mamlaktimizdagi olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini o'rganish davomida, ularning fikr-g'oyalarini oltita guruhga ajratish imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval.

Yoshlar turizmini rivojlantirishning tashkiliy shakllarining qiyosiy tahlili⁶

T/r	Yoshlar turizmini rivojlantirishning tashkiliy shakllari	Afzal tomonlari	Kamchiliklari
1	Turagentlik shakli	Chegirmalar, mo'tadil narxlar	Har doim ham arzon emas
2	Turoperatroluk shakli	Tashkillashtirilgan sayohat	Sayohatini o'zi tashkillashtirish istagi
3	Yirik turistik korporatsiyalar shakli	Xalqaro qamrovdagi turfirmalar faoliyati	Narx jihatdan yuqori
4	Mehmonxona majmuasi shakli	Barcha xizmatlar bir joyda jamlangan	Yoshlar, odatda, hostel kabi arzonroq joylarni afzal ko'rishadi
5	Global birlashuv shakli	Internet orqali bronlash oson	Internetda ko'rsatadigan va amaldagi holat o'rtasida farq bo'lishi mumkin
6	Mahalliy birlashuv (klaster) shakli	Qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish tufayli turlarning qiymati arzonlashadi va yoshlar sayyohati uchun kengroq imkoniyat	Boshqaruv kadrlar muammosi

Ijtimoiy tarmoqlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yosh sayyohlarning xulq-atvorida muhim o'zgarishlar sodir

⁶Manba: muallif ishlanmasi.

bo'lgan. Ulardan biri ekskursiyalarni qidirish va bron qilishda smartfonlar hamda kompyuterlarni o'rnini bosdi. Dissertatsiyada sayohat davomida foydalaniladigan turli mobil xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlarining statistikasi keltirilgan. Sayyohlar yoshi bo'yicha 4 avlodga bo'linib, har bir avlod qancha foizda mobil qurilmalar va onlayn dasturlardan foydalangan holda o'z sayohatini amalga oshirish ko'rsatkichi aks ettirilgan.

1-jadvaldan ko'rinadiki, post pandemiya sharoitida yoshlar turizmini rivojlantirishning innovatsion shakli sifatida mahalliy birlashuv asosida tashkil etiladigan turistik klasterlar muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Chunki, aynan klaster yondashuvida yoshlar turizmini tashkil etishda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish tufayli turlarning qiymati arzonlashadi va yoshlar uchun sayyohat qilish uchun kengroq imkoniyat yaratadi. Turistik klasterlarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, ular mahalliy birlashuv, ya'ni mamlakat ichida faoliyat ko'rsatadi. Post pandemiya sharoitida ushbu turizm shakli yoshlarning xavfsiz sayohatini amalga oshirishiga ham xizmat qiladi.


Klaster yondashuvida turizmni rivojlantirish turistik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari va hududning turistik mahsulotiga jalb qilingan korxonalar aglomeratining birgalikdagi harakatlari bilan bog'liq. Yoshlar turizmi sohasidagi klaster – bu jamoat, institut va muassasalarning ko'p funksional birlashmasi, shuningdek, ma'lum bir hudud yoki mintaqaning zamonaviy innovatsion texnologiyalariga asoslangan, ijtimoiy-demografik ustuvorliklar va jamiyatning madaniy-axloqiy qadriyatlariga asoslanib, birgalikdagi faoliyati davlat tomonidan belgilanadigan va tartibga solinadigan turizm bozori va unga aloqador tarmoqlar korxonalarining birlashmasidir.

Yoshlar turizmini rivojlantirishning tashkiliy shakllarini qiyosiy tahlili ko'rsatdiki, yoshlar turizmi klasteri tarkibida yoshlar uchun turistik mahsulotni yaratish va sotish jarayonida turistik bozor korxonalari va turdosh sanoat tarmoqlari bilan taqqoslaganda davlat muassasalarining ustuvorligi mavjud; ijtimoiy va demografik afzalliklarning ustuvor ahamiyati, jamiyatning madaniy va axloqiy qadriyatlari, faqat moddiy va moliyaviy manfaatlarga erishishga e'tiborni qaratmaslik; yoshlar turizmining klasterli ta'limi asosan ma'lum bir hududda to'plangan.

Yoshlar turizmi klasterini tashkil etishda yoshlar nigohida tashrif joylari jozibadorligini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari yoshlar tashrif buyuradigan sayohatgohlarining klasterboplik darajasi yuqori bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun yoshlar turistik klasterlarini turistik destinatsiyalarga tayangan holda uning "destinatsion" modeli asosida yaratish tavsiya etilgan (1-rasm).

Turizm klasterining "destinatsion" modeli uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi degan xulosaga kelindi. *Klaster yadrosi* qo'shilgan qiymat zanjirining yaratilishida klaster qatnashchilarining chuqur texnologik integratsiyaga kirshuvchanligi bilan bog'liq bo'lgan turli turistik tashkilotlaridan tarkib topadi. *Klaster hamkorlariga* turizm faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlashga ko'maklashadigan va qo'llab-quvvatlaydigan mustaqil info va infratuzilmalar

kiradi. *Klaster destinatsiyasi* tashrif buyuradiganlarga mahalliy turistik mahsulot va xizmatlarini taklif etish salohiyatiga ega bo‘lgan diqqatga sazovor joylardir.



1-rasm. Turizm klasterining “destinatsion” modeli⁷

Turistik klasterlar quyidagi muhim tamoyillar asosida shakllanadi va faoliyat ko‘rsatadi:

1. Klaster doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarining bir hududda joylashganligi.
2. Qo‘shilgan qiymat zanjirining yaratilishida klaster qatnashuvchilarining chuqur texnologik integratsiyaga kirshuvchanligi.
3. Klaster tizimida o‘zaro hamkorlikdagi aloqa va raqobatning uyg‘unligi.
4. Innovatsiyaviyligi.
5. Davlat-xususiy sherikchiligi.

Dissertatsiyaning “**Yoshlar turistik destinatsiyalarining klasterbopligini aniqlash uslubi**” deb nomlangan ikkinchi bobida “SMART yoshlar turistik destinatsiya” sayohat klasterini shakllantirishning tayanch asosi, yoshlar turistik destinatsiyasining yoshlar turistik klasteriga aylantirish shart-sharoitlari, yoshlar tashrif joylarining sayohat klasterboplik darajasini KPI tizimi bo‘yicha baholash bosqichlari va mezonlari tadqiq etilgan.

Turizm sohasida klasterlashtirish jarayoni “turistik destinatsiya” (sayyohning tashrif joyi) tushunchasi bilan bog‘liq. Yoshlar turistik destinatsiya yosh sayyohlarni o‘ziga jalb qiluvchi mamlakatlar, viloyatlar, shaharlar va boshqa hududlar bo‘lib, bunday destinatsiyalar asosan qimmat bo‘lmagan ko‘ngilochar xizmatlar, turar joylar, oziq-ovqat va yoshlar uchun mo‘ljallangan boshqa xizmatlar majmuidan tashkil topadi. Ushbu hudud tashrif buyuruvchi kamida bir kecha-kunduzni o‘tkazadigan jismoniy makondir. U sayyohlik mahsulotlari, ya‘ni yordamchi xizmatlar, diqqatga sazovor joylar, turli attraksionlar, shuningdek, sayohat boshlangan kundan boshlab bir kun ichida foydalaniladigan turistik resurslarni o‘z ichiga oladi. “Yoshlar turistik destinatsiya” tushunchasini

⁷ Manba: muallif ishlanmasi.

ta'riflashda ishda mavjud yondashuvlarni uchta: hududiy-geografik, ishlab chiqarish (funktional) va ijtimoiy-madaniy yo'nalishlar birikmasi sifatida ko'rib chiqilgan.

Yoshlar turistik destinatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari narxlarning hamyonbopligi, yoshlar uchun ta'lim olish imkoniyati, turli sport turlari bilan shug'ullanish, yoshlar festivalining tashkil etilishi, maksimal ko'ngilxushlik, suvenir markazlarining mavjudligidan iborat.

Yoshlarning sayohat jarayonida keksalarga nisbatan AKT texnologiyalari va internet imkoniyatlaridan faolroq foydalana olish mahoratini inobatga olib, klasterning raqamlashtirilgan tarmog'ini yaratish maqsadida dissertatsiyada SMART⁸ yoshlar turizmni shakllanganligi va raqamli texnologiyalarining rivojlanganligini ifodalaydigan uch darajali "Yoshlar turistik destinatsiyaning klasterbop SMART modeli" taklif etilgan (2-rasm).



2-rasm. Yoshlar turistik destinatsiyaning klasterbop SMART modeli⁹

Mazkur modelning birinchi darajasida – diqqatga sazovor va yoshlar uchun ko'ngilochar joylarning yosh sayyohlar nigohidan real va virtual jozibadorligi; ikkinchi darajasida – yoshlar tashrif buyuradigan turistik joylarda turistik biznesni klaster yondashubida rivojlantirish imkoniyatlari; uchinchi darajasida – SMART turistik destinatsiyalarining shakllanishi va ularga tashrif buyuradigan yosh turistlarning sayohat qilishda AKT va internet imkoniyatlaridan keng foydalanish o'z aksini topgan.

"Yoshlar turistik destinatsiyaning klasterbop SMART modeli"ni turistik klasterlashtirish jarayonida qo'llash evaziga an'anaviy turistik destinatsiya "aqlli" yoshlar turistik destinatsiyasiga transformatsiya bo'ladi va uning negizida "SMART destinatsiya+klaster" ko'rinishidagi yangicha klaster tarmog'ini yaratish imkoni vujudga keladi. Klasterlarni bunday uslubda yaratish yoshlar tashrif joylarining "aqlli" hududi va "SMART" yoshlar turistik mahsulotini uyg'un birligi ta'minlanadi. Natijada, klasterning *ustqurmasi* sifatidagi "klaster yadrosi"ni


⁸"SMART" abbreviaturasi 5 ta quyidagi inglizcha so'zlarining bosh harflaridan tarkib topgan: S ("specific" – maxsus yo'naltirilganlik); M ("measurable" – iqtisodiy o'lchovlilik); A ("achievable" – erishish imkoniyatlarining realligi); R ("related" – o'zaro bog'liqlikka ega bolish); T ("times-bound" –ijro muddatlari chegaralarining o'rnatilganligi).

⁹ Manba: muallif ishlanmasi.

yaratish uchun mustahkam destinatsion *poydevor* paydo bo‘ladi degan xulosaga kelindi.

Klaster yondashuvida yoshlar turizmini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri yoshlar turistik klasteri obyektlari bo‘lmagan diqqatga sazovor joylarni yoshlar nigohidan jozibador tashrif joylariga aylantirishdan iborat. Amalda bunday destinatsion transformatsiyani yoshlar nigohida tashrif joylari jozibadorligining tavsiflovchi “Sayohatgohlarning klasterbopligi” (SKB) aniqlovchisini baholash orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bunda “klasterbop” deganda sayohatgohni klaster shakllantirish imkonining mavjudligini va “sayohat klasterbopligi” iborasi bilan esa yoshlar tashrif joylarining sayohlik tashkilotlari bilan integratsiyasida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash imkonini yaratish maqsadida birlashma tuzishga yaroqli degan ma’ nolarni ifodalaydi¹⁰.

Dissertatsiyada “Yoshlar tashrif joylarning sayohat klasterboplik” darajasini KPI tizimida baholash maqsadga muvofiq deb topildi. Bunday tashrif joylarining real sayohat klasterboplik darajasini besh bosqichda aniqlash tavsiya etilgan (3-rasm). Birinchi bosqichda “Yoshlar tashrif joylarining etalon sayohat klasterbopligi”ni sifat jihatidan tavsiflashga qodir bo‘lgan 10 ta o‘lchov mezonlari tavsiya etiladi. Bu mezonlar 2-jadvalning 1-ustunida joylashtirilgan.



3-rasm. Yoshlar tashrif joylarining sayohat klasterboplik darajasini aniqlash bosqichlari¹¹

Yoshlar tashrif joyining etalon indikator, baholashda eng yuqori ball sifatida qabul qilingan, jami 100 ballga tenglashtirilgan holda miqdoriy ifodalanadi (2-jadvalning 14-satrida ko‘rsatilgan). Ikkinchi bosqichda yoshlar tashrif joylarining sayohat klasterboplik darajasini baholashning asosiy mezonlarini tavsiflaydigan 20 ta “muhim klasterboplik indikatorlari” (KPI) ishlab chiqildi. Bu indikatorlar 2-

¹⁰Навруз-зода З.Б. Муқаддас жойларнинг зиёрат кластербoplik даражасини аниқлаш методологияси ва меzonлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. –Т., 2020. – № 1, 238-б.

¹¹ Manba: muallif ishlanmasi.

jadvalning 2-ustunida joylashtirilgan. Uchinchi bosqichda yoshlar tashrif joylarining aniqlashning muhim klasterboplik indikatorlari (KPI) ning sifat holati beshta: juda past – 1 ball; past – 2 ball; o‘rtacha – 3 ball; o‘rtachadan yuqori – 4 ball; yuqori – 5 ball bilan baholash shkalasi tavsiya etilgan. Bu shkala bo‘yicha KPI baholari baholonuvchilar tomonidan 2-jadvalning 3-ustunida qo‘yib boriladi.

To‘rtinchi bosqichda yuqorida tavsiflangan asosiy mezonlari va muhim klasterboplik indikatorlari yuzasidan diqqatga sazovor joyning gidi yoki ushbu maskanni yaxshi biladigan eksperti tomonidan, real holatini inobatga olgan holda diqqatga sazovor joyga ballar hisobiga ekspert bahosi qo‘yib chiqiladi va uning KPI tizimida umumiy yig‘indisini hisob-kitob qilinadi. Buxoro shahridagi “Somoniyalar” istirohat bog‘i misolida bog‘ning klasterboplik darajasini baholash ko‘rsatkichlariga ekspert tomonidan qo‘yilgan juz‘iy va umumiy ballari 2-jadvalning 13-satrida keltirilgan.

Beshinchi bosqichda yoshlar tashrif joylarining ekspert bahosi etalon bahosi bilan qiyoslash orqali ularning to‘rtta quyidagi jozibadorlik darajalari va unga mos ravishda klasterboplik aniqlovchilarining tegishli sifat maqomlari tavsiya etiladi:

1) 0 balldan 40 ballgacha – past darajadagi jozibadorlikka ega “Ko‘ngilochar maskan”;

2) 40,5 balldan 70 ballgacha – o‘rta darajadagi jozibadorlikka ega “Diqqatga sazovor yoshlar tashrif joyi”;

3) 70,5 balldan 85 ballgacha – o‘rtadan yuqori darajadagi jozibadorlikka ega “Yoshlarning jozibador sayohat destinatsiyasi”;

4) 85,5 balldan 100 ballgacha – yuqori darajadagi jozibadorlikka ega “Klasterbop sayohatgoh”.

KPI tizimi bo‘yicha baholash metodikasiga ko‘ra Buxoro shahridagi “Somoniyalar” istirohat bog‘i 86 balli sayohat klasterboplik indikatorini bahosi bilan jozibadorligi yuqori darajasida bo‘lgan “Klasterbop sayohatgoh” aniqlovchisiga mos kelishi aniqlangan.

Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tuzilgan maxsus savolnoma vositasida O‘zbekistondagi 30 ta yoshlar tashrif joylarining sayohat klasterboplik indikatorini ekspert usulida baholash natijasida ularning jozibadorlik darajasi aniqlandi (3-jadval).

3-jadvalda O‘zbekiston bo‘ylab faoliyat yuritayotgan yoshlar tashrif joylarining baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, jami baholangan 30 ta tashrif joylari orasida sayohat klasterbopligi real rivojlanganlik darajasining holati 85,5–100 ball oralig‘ida baholangan “Klasterbop sayohatgoh” sifat maqomiga mos keladigan tashrif joylarning soni 6 ta yoki 20% ni tashkil etadi.

Ushbu tashrif joylarning 4 tasi Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatadigan – “Magic city” (88 ball), “Next mall” (86 ball), “Samarqand Darvoza mall” (87 ball), “Tashkent city” (87 ball) yoshlarning eng ko‘p tashrif maskanlari bo‘lib, faqat ikkitasi Buxoro viloyatida – “Buxara Desert Oasis” (95 ball) va “Somoniyalar”

Yoshlar tashrif joylarining sayohat klasterboplik darajasini KPI tizimi bo'yicha baholash metodikasi (Buxoro shahridagi "Somoniylar" istirohat bog'i misolida)¹²

Baholashning asosiy mezonlari	Yoshlar tashrif joylari (YTJ)ning muhim klasterboplik indikatorlari (KPI)	Ekspert bahosi
1	2	3
1 YTJ haqidagi ma'lumotlarning keng qamrovliligi	KPI(1.1). YTJ haqida mavjud ma'lumotlarining qamrov darajasi va ularning katalog, buklet, fotoalbom va boshqa shakllarda mavjudligi.	5 ball
	KPI(1.2). Gidlar tomonidan yosh sayohlarga mazkur obyekt haqida necha daqiqa hikoya qilish imkonining mavjudligi.	5 ball
2. YTJ infratuzilmasining rivojlanganligi	KPI (2.1). YTJning ta'mirlanganligi, qayta tiklanganligi va obodonlashtirish darajasi.	5 ball
	KPI (2.2). YTJnigacha borish-kelish yo'llarning ravonligi, ularning atrofida ovqatlanish va joylashtirish maskanlarining mavjudligi.	5 ball
3. YTJning nufuzliligi	KPI (3.1).YTJning omma o'rtasidagi nufuzi va ommabopligi.	5 ball
	KPI(3.2). Destinatsiyaning xalqaro e'tirof darajasi.	4 ball
4. YTJning ko'ngilocharlik xususiyati	KPI(4.1). YTJning har kunlik rutinadan zerikib, ko'ngil yozishga keladigan g'ayratli yoshlar uchun mos bo'lishi.	5 ball
	KPI (4.2). YTJning ekstrim xususiyatiga egaligi.	5 ball
5. YTJning jozibadorlik martabasi	KPI (5.1).Tashrif buyuriladigan obyektning taklif etiladigan xizmatlari soni va ularning sifati.	5 ball
	KPI (5.2). Tashrif buyuriladigan obyektning taklif etiladigan xizmatlari narxlarining hamyonbopligi.	5 ball
6. YTJning ilmiy salohiyati	KPI(6.1). Mazkur maskanga sayohat orqali yoshlarni dunyoqarashining ortishi va uning tarbiyaviy ahamiyati.	5 ball
	KPI (6.2). YTJga tashrif evaziga yangi bilimlarga ega bo'la olishi va yangi tanishlar orttira olishi.	5 ball
7. YTJdagi obyektlarining turi	KPI (7.1). YTJ ning sog'lomlashtirish imkoniyatlari.	4 ball
	KPI (7.2). YTJda sport musobaqalari o'tkaziladigan joy, chet tillarini o'rganadigan markazining mavjudligi.	5 ball
8. YTJning zamonaviyliligi	KPI(8.1). YTJ yangi yoki eski qurilgan obyekt hisoblanadi.	3 ball
	KPI (8.2). YTJning zamonaviylik qiyofasi.	4 ball
9 YTJning SMART texnologiyalarga boyligi	KPI (9.1). SMART texnologiyalardan foydalanish orqali bevosita sayohatlarni amalga oshirish imkoniyati.	2 ball
	KPI (9.2). Yoshlarning yashab turgan manzilidan turib turistik joyga onlayn ekskursiya qilish mumkinligi.	1 ball
10. YTJning foydalilik va boshqarish imkoniyatlari	KPI (10.1). YTJni foydalilik holati.	4 ball
	KPI (10.2). YTJni boshqarish imkoniyatlarining mavjudligi.	4 ball
Asosiy o'lchov mezonlari bo'yicha yoshlar tashrif joylarining yig'gan jami ballari va ularning jozibadorlik darajasi		86 ball (yuqori)
YTJ ning etalon indikator (<i>baholashda eng yuqori ball sifatida qabul qilingan miqdor</i>)		100 ball
YTJning sayohat klasterboplik maqomi:		"Klasterbop sayohatgoh"

¹² Manba: muallif ishlanmasi.

istirohat bog‘i (86 ball) joylashgan. Ushbu 6ta yoshlar tashrif joylari negizida yoshlar turistik klasterlarini yaratish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

3-jadval

O‘zbekistondagi 30 ta yoshlar tashrif joy (YTJ)olarining sayohat klasterbopligini baholash orqali jozibadorlik darajalari¹³

T/r	YTJning sayohat klasterboplik indikatori bahosi, (ballarda)	YTJning jozibadorlik darajasi	YTJni sayohat klasterboplik sifat maqomlari	YTJlar soni	Ularning ulushi, (%da)
1	0–40 ball	Past	“Ko‘ngilochar maskan”	4	13
2	40,5–70 ball	O‘rta	“Diqqatga sazovor yshlar tashrif joyi”	13	44
3	70,5–85 ball	O‘rtadan yuqori	“Yoshlarning jozibador sayohat destinatsiyasi”	7	23
6	85,5–100 ball	Yuqori	“Klasterbop sayohatgoh”	6	20
Jami:				30	100


Baholangan diqqatga sazovor joylar orasida “Diqqatga sazovor yoshlar tashrif joyi” sifat maqomiga ega bo‘lgan yoshlar tashrif joyining soni eng ko‘p – 13 ta (44%) ni tashkil qiladi. O‘rganilgan yoshlar tashrif joylarining eng kam soni – 4 tasi (13%) esa jozibadorligi past darajada bo‘lib, “Ko‘ngilochar maskan” sifat maqomida qaror topilgan. Bundan tashqari, sayohat klasterbopligi real rivojlanganlik darajasining holati 70,5–85 ball oralig‘ida baholangan “Yoshlarning jozibador sayohat destinatsiyasi” sifat maqomiga mos keluvchi diqqatga sazovor joylar 7 ta, ya’ni 23% ni tashkil etadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Yoshlar turizmini rivojlantirishning klaster mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari**” deb nomlanib, mazkur bobda yoshlar turizmi klasterining tuzilishi va funksiyalari, yoshlar turistik klasterini shakllantirishning qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish mexanizmini takomillashtirish, Buxoro viloyatida yoshlar turizmini 2024–2028-yillarga prognozlashtirish masalalari tadqiq etilgan.

“SMART destinatsiya+klaster” modeli shaklida yangi klaster tizimini yaratish maqsadida muallif tomonidan Buxoro viloyati “Yoshlar turizmi klasteri” tashkiliy tuzilmasining uch blokli mexanizmi taklif etilgan (4-rasm).

Yoshlar turizmi klasterini yaratish mexanizmining ushbu sxematik ifodasi integratsion, hamkorlik va destinatsion bloklardan iborat.

¹³Jadval tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



4-rasm Buxoro viloyati “Yoshlar turizmi klasteri”ning tashkiliy tuzilishi¹⁴

